

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/04.10.2024.P.72.06 RAQAMLI ILMIY KENGASH

SAMARAQAND DAVLAT UNIVERSITETI

ISXAKOVA SHAHLO ISMOILOVNA

O‘SMIRLAR KROSS-MADANIY TASAVVURLARINI
SHAKLLANTIRISHNING IJTIMOY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

19.00.05 – Ijtimoiy psixologiya. Etnopsixologiya

PSIXOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Buxoro – 2025

**Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
психологическим наукам**

**Contents of Dissertation Abstract of the Doctor of Philosophy (PhD) on the
Psychological Sciences**

Isxakova Shaxlo Ismoilovna

О'smirlar kross-madaniy tasavvurlarini shakllantirishning ijtimoiy-psixologik
xususiyatlari.....3

Исакова Шахло Исмоиловна

Социально-психологические особенности формирования кросс-культурных
представлений подростков.....21

Isxakova Shaxlo Ismoilovna

Socio-psychological characteristics of the formation of cross-cultural imagination
in adolescents39

E'lon qilingan ishlar ro'uxati

Список опубликованных работ
List of published works.....43

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/04.10.2024.P.72.06 RAQAMLI ILMIY KENGASH

SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI

ISXAKOVA SHAHLO ISMOILOVNA

O‘SMIRLAR KROSS-MADANIY TASAVVURLARINI
SHAKLLANTIRISHNING IJTIMOY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

19.00.05 – Ijtimoiy psixologiya. Etnopsixologiya

PSIXOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Buxoro – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.3.PhD/P992 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Samarqand davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.buxdu.uz) va «ZiyoNet» axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: Negmatova Shaxzoda Shuhratovna
falsafa fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar: Ulug'ova Shahlola Musliddinovna
psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent
Axmudov Nazirjon Rahmatovich
psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Yetakchi tashkilot: Ma'mun universiteti

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat universiteti huzuridagi DSc.03/04.10.2024.P.72.06 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil «14» oktabr soat 14:00dagi majlisida bo'lib o'tadi (manzil: 200118, Buxoro shahri, Muhammad Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: (+99865) 221-29-14; faks: (+99865) 221-27-57; email: buxdu.rektor@buxdu.uz).

Dissertatsiya bilan Buxoro davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin. (Manzil: 200101, Buxoro viloyati, Buxoro shahri, Muhammad Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: (+ 998 65) 221-29-14).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil «30» sentabr kuni tarqatildi.

(2025-yil «30» sentabr dagi 20 - raqamli reyestr bayonnomasi).



A.M. Nazarov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi,
psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

Sh.Sh. Rustamov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash kotibi,
psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

A.A. Xuseynova
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi Ilmiy seminar raisi, falsafa fanlari
doktori, professor

Kirish (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati. Jahonda globallashtirish, iqtisodiy integratsiya jarayonlarining kuchayishi, keng miqyosli migratsiya va transmilliy aloqalarning ortishi o'smirlar ongida kross-madaniy tasavvurlarni shakllantirish zaruratini kuchaytirmoqda. UNESCO hisobotlarida qayd etilishicha, o'quv dasturlariga kross-madaniy muloqot elementlari kiritilgan maktablarda o'quvchilarning 68 foizida boshqa millat vakillari bilan ijobiy hamkorlik ko'nikmalari shakllangan. UNESCOning 2013-yil 18-noyabrdagi «Madaniyatlararo muloqot va ta'lim: Global Strategiya» hujjatida ta'lim jarayonida madaniy kompetensiyalarni rivojlantirish, jumladan, yoshlar va o'smirlar orasida turli madaniyatlar tajribasini kengaytirishga alohida e'tibor qaratilgan. Shuningdek, madaniy almashuv sharoitida o'smirlarning madaniy tasavvurlari va ularning shakllanishi har qanday jamiyat uchun dolzarb muammo hisoblanmoqda¹.

Jahon ta'lim va ilmiy markazlarida o'smirlarda kross madaniy tasavvurlarni ta'lim jarayonida shakllantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. «World Values Survey» doirasidagi tadqiqotlarda turli madaniyatlararo muhitda tarbiyalangan o'smirlarning 60 foizdan ortig'i boshqa madaniy qadriyatlarni qabul qilishga tayyor ekanliklarini bildirgan, bu ko'rsatkich bunday dasturlar mavjud bo'lmagan muhitda atigi 35 foizini tashkil etgan. Milliy ta'lim statistik markazlari ma'lumotlariga ko'ra, kross-madaniy dasturlar tadbiq etilgan maktablarda diskriminatsion xatti-harakatlar va etnik bezorilik holatlari 25-30 foizga kamaygan. Yevropa Ittifoqi tomonidan 2023-yilda o'tkazilgan monitoring natijalariga ko'ra, o'smirlar o'rtasida madaniyatlararo loyihalarda faol qatnashganlarning umumiy farovonlik darajasi va ijtimoiy faolligi 18-20 foizga yuqori bo'lgan. Shu asosda, o'smirlarda kross-madaniy tasavvurlarni shakllantirishning ijtimoiy-psixologik mexanizmlarini takomillashtirish ularning shaxs sifatida rivojlanishi, jamiyatda barqarorlikni ta'minlash va kelajakda bag'rikeng hamjamiyat qurishga psixologik zamin yaratishi mumkinligi ilmiy tadqiqotlarning dolzarb yo'nalishiga aylanmoqda².

Yangi O'zbekistonda keyingi yillarda o'smirlar ongida kross-madaniy tasavvurlarni shakllantirishning ijtimoiy-psixologik texnologiyalarini takomillashtirish masalalariga alohida e'tibor qaratilib, zarur huquqiy va me'yoriy asoslar yaratilmoqda. «Madaniyatlararo muloqot madaniyatini rivojlantirish, millatlararo hamjihatlik va totuvlikni mustahkamlash, yosh avlodni shu asosda, Vatanga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalash O'zbekistonda davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri etib belgilandi». Shuningdek, «Vatanga sodiq, bag'rikenglik ruhida, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat bilan qaraydigan, zararli oqimlarga qarshi tura oladigan yoshlarni tarbiyalash» vazifasi davlat va jamiyat e'tiborida turibdi. Bu esa o'smirlar o'rtasida kross-madaniy tasavvurlarni shakllantirish jarayonini ilmiy asosda o'rganish, mavjud

¹ <https://www.unesco.org/ru>

² <https://www.worldvaluessurvey.org/>

texnologiyalarni takomillashtirish va yangicha nazariy yechimlarni ishlab chiqish zaruratini taqozo etmoqda³.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son «2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida»gi, 2021-yil 30-iyuldagi PQ-5138-son «Yoshlarni ijtimoiy va madaniy rivojlantirish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi Farmonlari, 2019-yil 24-iyuldagi PQ-4411-son «O‘zbekiston Respublikasida turizmni rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida»gi, 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-son «Oliy ta‘lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi, 2017-yil 19-maydagi PF-5046-son «Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do‘stlik aloqalarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi farmonlari hamda faoliyatga oid boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga mazkur dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalari rivojlanishning I. «Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, ma‘naviy-ma‘rifiy, rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotini shakllantirish» ustuvor yo‘nalishi muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Respublikamiz olimlaridan M.S.Abdurahmonov, L.B.Asadova, M.M.Bafayev, Sh.R.Baratov, R.M.Jumayev, A.M.Jabborov, G.A.Karimova, D.T.Niyozov, J.Najmiddinov, A.I.Rasulov, A.E.Ruziyev, R.S.Samarov, N.S.Safayev, A.S.To‘raqulov, I.Usmonov, Z.Xusniddinov va boshqa olimlar tomonidan o‘smirlar kross-madaniy tasavvurlarini shakllanishiga ta‘sir etuvchi ijtimoiy-psixologik xususiyatlar bo‘yicha tadqiqotlar olib borishgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi mamlakatlari psixologlari A.G.Asmolov, A.B.Abilov, V.I.Belov, H.T.Davtyan, V.V.Vorobev, R.M.Guliyev, B.S.Gershunskiy, F.A.Hasanov, A.S.Hakobyan, L.N.Kozlov, N.P.Kislova, V.E.Lebedeva, A.V.Petrovskiy, G.U.Soldatova, M.V.Sokolov, M.B.Xomyakov, G.K.Zhanibekov, I.V.Shelamova va boshqalar tomonidan ta‘limning turli bosqichlarida o‘quvchilarda kross-madaniy tasavvurlarni shakllantirish hamda turistik tajribalar orqali madaniy ko‘nikmalarni rivojlantirish masalalari ilmiy tadqiq etilgan.

Xorij olimlaridan J.Adler, S.Anholt, J.Bennett, J.Berry, W.Cramer, G.Hofstede, T.Hall, A.Maslou, G.Markuze, K.Rodgers, M.Rokich, N.K.Rerich V.Satir, E.Shostrom, M.Uolster, E.Fromm, M.Xorkxaymer va boshqalar o‘smirlardagi akkulturatsiya, moslashuv hamda kross-madaniy farqlar bo‘yicha ilmiy-amaliy ishlar olib borishgan.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya Buxoro

³ O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori. Yoshlar muammolarini o‘rganish va hal etish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida. 312-son. 2022-yil 7-iyun // <https://lex.uz/docs/6051791>

davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining PZ-202005236 «Oila psixologiyasi fanidan multimedia mahsulotini yaratish» nomli innovatsion loyiha doirasida bajarilgan (2021-2022 yy.).

Tadqiqot maqsadi o'smirlar kross-madaniy tasavvurlarini shakllantirishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini rivojlantirish bo'yicha psixologik tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqot vazifalari:

o'smirlardagi kross-madaniy tasavvurlarning shakllanishiga ta'sir etuvchi differensial omillarni aniqlashtirish;

o'smirlardagi kross-madaniy tasavvurlarining shakllanishiga qadriyatlar ta'siri, madaniy identifikatsiya hamda madaniyatlararo empatiyaning ta'sirini tahlil qilish;

o'smirlar kross-madaniy tasavvurlarini shakllanishining tolerantlik indeksiga bog'liqlik jihatlarini ochib berish;

o'smirlarda kross-madaniy tasavvurlarni shakllantirish modelini ishlab chiqish.

Tadqiqot obyekti sifatida o'smirlar kross-madaniy tasavvurlarini shakllantirishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari tanlangan bo'lib, Samarqand viloyati Samarqand shahridagi 29-sonli maktabning 110 nafar, Buxoro viloyati Buxoro shahridagi 17-sonli maktabning 80 nafar va Navoiy viloyati Qiziltepa tumanidagi 43-sonli maktabning 70 nafar o'smirlardan jami 260 nafar respondent jalb etilgan.

Tadqiqot predmetini o'smirlar kross-madaniy tasavvurlarini shakllantirishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari tashkil etadi.

Tadqiqot usullari. Tadqiqot jarayonida suhbat, kuzatish metodlari qo'llanildi. Shuningdek, S.S.Bubnovaning «Shaxsning ijtimoiy qadriyatlarini diagnostika qilish» metodikasi; G.U.Soldatova, O.A.Kravtsova, O.YE. Xuxlayev, L.A.Shaygerovalarning «Shaxs tolerantligi indeksi», F.Klakxon va F.Strodbek nazariyasi asosida L.G.Pochebut tomonidan ishlab chiqilgan «Madaniy-ma'naviy yo'nalishlarni sinash» testi hamda biz tomonimizdan ishlab chiqilgan «O'smirlar kross-madaniy tasavvurlari darajasini o'rganish» ijtimoiy-psixologik so'rovnomasi usullaridan foydalanildi. Olingan natijalarning statistik ishonchliligi matematik-statistika metodlaridan Styudentning t-mezoni va K.Pirsoning r-korrelyatsiya koeffitsiyenti metodlari orqali tasdiqlandi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

o'smirlardagi kross-madaniy tasavvurlar boshqa millat, madaniyat vakillarining qadriyatlari, e'tiqodlarini tushungan holda ular bilan muloqot qilishning kasbiy, oilaviy, ijtimoiy qadriyatlariga bog'liqligi tufayli madaniy assimilyatsiya ta'sirida etnik identifikatsiyaning o'zgarishiga bog'liq shakllanishi dalillangan;

o'smirlardagi kross-madaniy tasavvurlarning «an'anaviy», «zamonaviy», «dinamik rivojlanayotgan» qadriyatlar ta'sirida shakllanishi madaniy identifikatsiyaning shaxs ijtimoiy rollariga bog'liq namoyon bo'lishiga asoslanib,

akkulturatsiya orqali madaniyatlararo empatiyani kuchli ifodalanishiga olib kelishi isbotlangan;

o'smirlar kross-madaniy tasavvurlarini shakllanishi shaxslararo munosabatlardagi moslashuvchanlik hamda ijtimoiy rollarni idrok etish etnik, madaniy identifikatsiya sotsial tolerantlik, millatlararo muloqot ko'nikmasi tolerantlik sifati bilan identiv namoyon bo'lishishga asoslanib, shaxs tolerantlik darajasiga bog'liq ekanligi dalillangan;

o'smirlarning kross-madaniy tasavvurlarini shakllantirishda shaxsdagi etnik identifikatsiyaning vertikal (ota-ona bilan), gorizantal (tengdoshlar bilan) va bilvosita (ijtimoiy institutlar) transmissiya orqali milliy dahldorlik, tolerantlik sifatlariga uyg'un namoyon bo'lishi zarurligiga asoslanib, ijtimoiy moslashuvchanlikning madaniyatlararo muloqotda lokus nazoratga bog'liq rivojlanishini ta'minlash muhimligi isbotlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

o'smir yoshdagi maktab o'quvchilarida, kross madaniyat xususiyatlarini diagnostika qilish imkoniyatini beruvchi psixologik metodikalar tizimlashtirilgan;

tadqiqot jarayonida «o'smirlar kross-madaniy tasavvurlari shakllantirishning psixologik xususiyatlarini o'rganish» ijtimoiy-psixologik so'rovnomasi ishlab chiqilgan;

o'smirlarda kross-madaniy xususiyatlarini shakllantirishda yuzaga keladigan ijtimoiy-psixologik qiyinchiliklarni yengish bo'yicha shakllantiruvchi dastur ishlab chiqilgan va amaliyotga qo'llanganilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi muammoning aniq qo'yilganli, ilmiy jarayonlar ularning metodik jihatdan asoslanganligi, tadqiqot usullarining o'zaro bog'liqligi va to'ldirilganligi, predmetning adekvatligi, maqsad va vazifalari, xulosaning dalillarga asoslanganligi, tadqiqot metodlarining o'z o'rnida qo'llanilganligi, tajriba-sinov ishlarining tahlili va tadqiqot natijalarining miqdor va sifat jihatdan ta'minlanganligi hamda olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan asoslangan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarning ilmiy ahamiyati, o'smirlarda kross-madaniy tasavvurlari shakllanishida turistik manzilgohlarning ijtimoiy-psixologik omillarini rivojlantirishning psixologik xususiyatlarini ochib berishga ilmiya jihatdan yondashilgani, kross-madaniyat tushunchasi shakllanishida ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini inobatga oluvchi psixokorreksiya yo'nalishlarni ishlab chiqish imkonini beradi hamda kross-madaniyat shakllanishining mohiyati va tushunchasi ochib berilgani bilan izohlanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati tadqiqotdan olingan natijalarning ijtimoiy-amaliy faoliyatining turli sohalarida, maktablarda psixolog faoliyatini takomillashtirishda va tadqiqot natijalari yuzasidan ishlab chiqilgan xulosa va tavsiyalar asosida ta'lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan pedagoglar, psixologlar, psixologiya sohasida ilmiy izlanishlar olib borayotgan tadqiqotchilar, uchun amaliy-nazariy material sifatida foydalanishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarning joriy qilinganligi. «O‘smirlar kross-madaniy tasavvurlarini shakllantirishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari»ni o‘rganish bo‘yicha amalga oshirilgan ilmiy-tadqiqot natijalari asosida:

o‘smirlardagi kross-madaniy tasavvurlar boshqa millat, madaniyat vakillarining qadriyatlari, e‘tiqodlarini tushungan holda ular bilan muloqot qilishning kasbiy, oilaviy, ijtimoiy qadriyatlariga bog‘liqligi tufayli madaniy assimilyatsiya ta‘sirida etnik identifikatsiyaning o‘zgarishiga bog‘liq shakllanishi dalillanganligiga oid takliflar Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o‘quv-ilmiy markazining 2024-yil 7-noyabrdagi PM-219-son buyrug‘i bilan «Etnopsixologiya» moduliga kiritilgan (Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o‘quv-ilmiy Markazining 2024-yil 8-noyabrdagi PM-219-a-sonli ma‘lumotnomasi). Natijada o‘smirlardagi kross-madaniy tasavvurlarning shakllanishiga ta‘sir etuvchi differensial omillar aniqlashtirilgan;

o‘smirlardagi kross-madaniy tasavvurlarning «an‘anaviy», «zamonaviy», «dinamik rivojlanayotgan» qadriyatlar ta‘sirida shakllanishi madaniy identifikatsiyaning shaxs ijtimoiy rollariga bog‘liq namoyon bo‘lishiga asoslanib, akkulturatsiya orqali madaniyatlararo empatiyani kuchli ifodalanishiga olib kelishi isbotlanganligiga oid ma‘lumotlar Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o‘quv-ilmiy markazining 2024-yil 7-noyabrdagi PM-219-son buyrug‘i bilan «Ijtimoiy psixologiya» moduliga kiritilgan (Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o‘quv-ilmiy Markazining 2024-yil 8-noyabrdagi PM-219-a-sonli ma‘lumotnomasi). Natijada o‘smirlardagi kross-madaniy tasavvurlarining shakllanishiga turistik manzilgohlarning ta‘siriga oid psixologik jihatlar aniqlashtirilgan;

o‘smirlar kross-madaniy tasavvurlarini shakllanishi shaxslararo munosabatlardagi moslashuvchanlik hamda ijtimoiy rollarni idrok etish etnik, madaniy identifikatsiya sotsial tolerantlik, millatlararo muloqot ko‘nikmasi tolerantlik sifati bilan identiv namoyon bo‘lishishga asoslanib, shaxs tolerantlik darajasiga bog‘liq ekanligi dalillanganligiga oid takliflar Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o‘quv-ilmiy markazining 2024-yil 7-noyabrdagi PM-219-son buyrug‘i bilan «Ijtimoiy psixologiya» moduliga kiritilgan (Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o‘quv-ilmiy Markazining 2024-yil 8-noyabrdagi PM-219-a-sonli ma‘lumotnomasi). Natijada o‘smirlar kross-madaniy tasavvurlarini shakllanishining tolerantlik indeksiga bog‘liqlik jihatlari ochib berilgan;

o‘smirlarning kross-madaniy tasavvurlarini shakllantirishda shaxsdagi etnik identifikatsiyaning vertikal (ota-ona bilan), gorizantal (tengdoshlar bilan) va bilvosita (ijtimoiy institutlar) transmissiya orqali milliy dahldorlik, tolerantlik sifatlariga uyg‘un namoyon bo‘lishi zarurligiga asoslanib, ijtimoiy moslashuvchanlikning madaniyatlararo muloqotda lokus nazoratga bog‘liq

rivojlanishini ta'minlash muhimligi isbotlanganligiga oid ma'lumotlar Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2024-yil 7-noyabrdagi PM-219-son buyrug'i bilan «Psixokorreksiya» moduliga kiritilgan (Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy Markazining 2024-yil 8-noyabrdagi PM-219-a-sonli ma'lumotnomasi). Natijada o'smirlarda kross-madaniy tasavvurlarni shakllantirish modeli ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida muhokama etilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 13 ta ilmiy ish, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 8 ta maqola, shundan 4 ta respublika, 4 ta xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa va tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 140 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, mavzu bo'yicha ilmiy tadqiqotlar sharhi va muammoni o'rganilganlik darajasi bayon etilgan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti, predmeti, ishning fan va texnologiyalar rivojlanishining muhim yo'nalishlariga mosligi, tadqiqotning ilmiy yangiligi, natijalarning amaliyotda joriy etilishi, e'lon qilinganligi, ishning tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning «**Shaxs kross-madaniy tasavvurlarini tadqiq etishning nazariy asoslari**» deb nomlangan birinchi bobida shaxs kross-madaniy tasavvurlarining ijtimoiy-psixologik tavsifini o'rganish muammosining nazariy-ilmiy asoslari bilan bog'liq tahliliy sharhlar keltirilgan. Shuningdek, shaxs kross-madaniy tasavvurlari muammosi bo'yicha xorij hamda mamlakatimiz psixolog olimlarining mavzuga oid nazariy qarashlari umumlashtirilgan.

O'zbekiston psixolog-pedagog olimlaridan D.Raxmatova, Sh.Kasimov, Z.Yusupova, M.Tadjibayev, P.Qabulov, Z.Qodirova, A.Sharipov, V.Aliyeva, O.Atamirzayeva, M.Davletshin, V.Tokareva, E.G'oziyev, V.Karimova, G'.Shoumarov, N.Safayev, A.Jabborov, M.Mamatov, I.Maxmudov, B.Botirov, F.Tatibayeva, Z.Abidova, X.Jabborov, G.Salomova, A.Ro'ziyev va boshqalarning ko'plab ilmiy-tadqiqot ishlarida madaniyatlararo bag'rikenglik, tolerantlik, kross-madaniy tasavvurlar tuzilishining tarkibiy qismlari kabi muammolar ilmiy-amaliy jihatdan tadqiq qilingan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlari olimlaridan A.Asmolov, G.Soldatova, Y.Bogardus, V.Krisko, Y.Shlyagina, T.Stefanenko, G.Andreeva va boshqalar kross-madaniy tajribalar va ularning o'smirlar rivojlanishiga ta'siri bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borishgan.

Xorijlik olimlar P.Golbax, J.Piaje, E.Erikson, U.Bronfenbrenner, J.Bruner, J.Dewey, C.Gilligan, H.Gardner va boshqalar tomonidan kross-madaniyat va kommunikativ rivojlanish muammolari bo'yicha nazariy tahlillar keltirilgan.

Dissertatsiyaning «**O'smirlar kross-madaniy tasavvurlari shakllanishining empirik asoslari**» deb nomlangan ikkinchi bobida o'rganilayotgan muammoning empirik tahlili keltirilgan bo'lib, ushbu bobda tadqiqotning nazariy-metodologik asoslari, tadqiqotda qo'llanilgan metodlarning umumiy tavsifi, o'tkazish tartibi, olingan natijalarning tahlili o'z aksini topgan.

Dastlab, «O'smirlar kross-madaniy tasavvurlari darajasini o'rganish» so'rovnomasi orqali olingan natijalar tahliliga o'tamiz.

«O'smirlar kross-madaniy tasavvurlari darajasini o'rganish» so'rovnomasi orqali olingan dastlabki natijalar tahliliga ko'ra, «moslashuv qobiliyati» ($t=-2,1$; $p<0,05$), «madaniy identifikatsiya» ($t=-2,3$; $p<0,05$), «madaniyatlararo muloqot» ($t=-2,2$; $p<0,05$) hamda «ijtimoiy rol» ($t=-2,4$; $p<0,05$) omillari bo'yicha ahamiyatli farqlar qayd etildi.

1-jadval

«O'smirlar kross-madaniy tasavvurlari darajasini o'rganish» so'rovnomasi orqali olingan dastlabki natijalar tahlili (n=260)

Shkalalar nomi	O'rtacha qiymat (M)		Farqlar
	Qizlar n=112	Yigitlar n=148	t
Moslashuv qobiliyati	14,1	12,8	-2,1*
Madaniy identifikatsiya	11,6	13,7	-2,3*
Madaniyatlararo muloqot	12,5	14,1	-2,2*
Ijtimoiy rol	11,8	13,7	-2,4*

Metodikaning dastlabki «moslashuv qobiliyati» omili bo'yicha qizlarda yuqori natija kuzatildi ($t=-2,1$; $p<0,05$). Mazkur natijalar tahliliga ko'ra, ularda turli sharoitlar va yangi muhitlarga tez va samarali moslashuv qobiliyatining yuqori darajada ekanligi, o'zgaruvchan va dinamik muhitlarga adaptatsiya qilish jarayonining yaxshi rivojlanganligi, emotsional holatlar va stresslarga nisbatan moslashuvchanlikning yuqori darajada ekanligi, yangi sharoitlarda va madaniyatlarda o'zlarini qulay va ishonchli his qilishlari aniqlandi. Bu esa ularda yangi ijtimoiy va madaniy guruhlar bilan o'zaro aloqalarini mustahkamlashda, kreativlik va innovatsion fikrlarni qabul qilish va amalga oshirish qobiliyatini oshirishda, turistik manzilgohlar va madaniy tajribalar orqali o'zgaruvchan sharoitlarga qayta moslashish qobiliyatini yuqori darajada rivojlanishiga xizmat qiladi.

Metodikaning navbatdagi «madaniy identifikatsiya» omili bo'yicha yigitlarda yuqori natija kuzatildi ($t=-2,3$; $p<0,05$). Bu shundan dalolat beradiki, ularda o'z madaniyatlari va an'alariga nisbatan yuqori darajada hurmat, madaniy qadriyatlarni va urf-odatlarini saqlash va ularni yangi avlodlarga uzatishga nisbatan moyillik, madaniy an'analarni o'z hayotlarida tatbiq etish, tarix va an'analarni

bilish va ularni saqlashga bo'lgan intilish, kross-madaniy munosabatlarni rivojlantirishga harakat qilish, madaniy meroslarga e'tibor berish va uni qadrlash hamda turli millat vakillari bilan samarali tarzda muloqot qilish yuqori darjada ekanligi isbotlandi. Shuningdek, madaniy identifikatsiya yigitlarning boshqa madaniyatlar bilan o'zaro aloqalarini va integratsiyasini samarali tarzda amalga oshirishlariga, madaniy o'ziga xoslikni rivojlantirishga hamda o'zgaruvchan madaniyatlar bilan muvaffaqiyatli aloqalarning samarali rivojlanishiga xizmat qiladi.

Keyingi «madaniyatlararo muloqot» omili bo'yicha yigitlarda ijobiy natija kuzatildi ($t=-2,2$; $p<0,05$). Yigitlarda turli madaniyat vakillari bilan samimiy va ochiq muloqot qilishda yaxshi natijalarning mavjudligi, intellektual qobiliyatlari rivojlanganligi, samarali til va kommunikatsiya ko'nikmalarining ustunligi, empatiya hissining yuqoriligi, madaniyatlararo muloqotda innovatsion yondashuvlarni qo'llash orqali yangi fikrlar va g'oyalarni ilgari surish, strategik yondashuvlar va muammolarni hal qilish qobiliyatining ustunligi dalillandi. Yigitlarda «madaniyatlararo muloqot» omili bo'yicha ijobiy natijalarga erishganligi ularni madaniyatlararo aloqalarni mustahkamlashga va o'zaro tushunish va hurmatni rivojlantirishdagi yuqori ko'nikmalarini oshishiga xizmat qiladi.

Metodikaning so'nggi «ijtimoiy rol» omili bo'yicha yigitlarda yuqori natijalar kuzatildi ($t=-2,4$; $p<0,05$). Bu esa ularning jamoa ichida muayyan vazifalarni bajarishda faol va mas'uliyatli ekanini, ijtimoiy majburiyatlarni ado etishda o'zlarini ishonchli his qilishlarini ko'rsatadi. Shuningdek, yigitlar turli ijtimoiy rollarni muvaffaqiyatli bajarish orqali tengdoshlar bilan o'zaro munosabatlarni yaxshilash, madaniyatlararo aloqalarni mustahkamlash, shuningdek, kommunikativ, tashkiliy va boshqa ijtimoiy ko'nikmalarini samarali namoyon etishga intilayotganliklari aniqlandi. Shuningdek, yigitlarda «ijtimoiy rol» omili bo'yicha yuqori natijalar ularning ijtimoiy rollarni samarali qabul qilish va bajarish qobiliyatlarini, jamoa ichidagi faoliyatdagi muvaffaqiyatlarini va ijtimoiy mas'uliyatni yuqori darajada namoyish etishlarini anglatadi.

Tadqiqotimizning navbatdagi bosqichida «O'smirlar kross-madaniy tasavvurlari darajasini o'rganish» so'rovnomasi hamda «Madaniy-ma'naviy yo'nalishlarni sinash testi» omillari o'rtasidagi korrelyatsion bog'lanishlar tahliliga o'tamiz.

«O'smirlar kross-madaniy tasavvurlari darajasini o'rganish» so'rovnomasi hamda «Madaniy-ma'naviy yo'nalishlarni sinash» testi omillari o'rtasidagi bog'lanishlarga ko'ra, «moslashuv qobiliyati» omili «an'anaviy madaniyat» ($r=0,34$; $p\leq 0,05$) omili bilan, «madaniy identifikatsiya» omili «an'anaviy madaniyat» ($r=0,44$; $p\leq 0,05$) hamda «zamonaviy madaniyat» ($r=0,47$; $p\leq 0,05$) omillari bilan, «madaniyatlararo muloqot» omili «dinamik rivojlanayotgan madaniyat» ($r=0,43$; $p\leq 0,05$) omili bilan ijobiy korrelyatsiyaga kirishdi.

**«O‘smirlar kross-madaniy tasavvurlari darajasini o‘rganish»
so‘rovnomasi hamda «Madaniy-ma’naviy yo‘nalishlarni sinash testi» omillari
o‘rtasidagi korrelyatsion bog‘lanishlar tahlili (n=260)**

Omillar	Moslashuv qobiliyati	Madaniy identifikatsiya	Madaniyatlararo muloqot	Ijtimoiy rol
An’anaviy madaniyat	0,34*	0,44*	0,13	0,15
Zamonaviy madaniyat	0,17	0,47*	0,17	0,13
Dinamik rivojlanayotgan madaniyat	0,18	0,08	0,38*	0,17

«Moslashuv qobiliyati» omilining «an’anaviy madaniyat» ($r=0,34$; $p\leq 0,05$) omili bilan ijobiy korrelyatsion bog‘lanishi shuni ko‘rsatadiki, o‘z milliy qadriyatlari va madaniy merosini chuqur o‘zlashtirgan o‘smirlar yangi vaziyatlarga tez va samarali moslasha oladilar. Bu holat shuni anglatadiki, an’anaviy madaniyatni o‘rganish va qabul qilish nafaqat ichki barqarorlikni mustahkamlaydi, balki boshqa madaniyatlar bilan muloqotga kirishishda ham ochiqlikni kuchaytiradi. Demak, o‘z milliy ildizlarini yaxshi bilgan o‘smirlar kross-madaniy muhitda ham o‘zini yo‘qotmaydi, balki yangi madaniy qadriyatlarni tushunish va qabul qilish orqali moslashuvchanlikni namoyon etadi. Shuningdek, an’anaviy qadriyatlarga tayangan holda global madaniy aloqalarda faol bo‘lish ularning ijtimoiy normalarga moslashuvchanligini, madaniyatlararo hamkorlikda konstruktiv pozitsiya egallashini ta’minlaydi. Shu tariqa, an’anaviy madaniyat va kross-madaniy tasavvurlar uyg‘unligi o‘smirlarning ijtimoiy-psixologik rivojlanishida muhim determinant sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Navbatdagi «madaniy identifikatsiya» omili «an’anaviy madaniyat» ($r=0,44$; $p\leq 0,05$) hamda «zamonaviy madaniyat» ($r=0,47$; $p\leq 0,05$) omillari bilan ijobiy korrelyatsion bog‘lanishni namoyon etdi. «An’anaviy madaniyat» bilan bog‘liqlik shuni ko‘rsatadiki, milliy qadriyatlar, urf-odatlar, oilaviy an’analar va tarixiy tajribalarni chuqur o‘zlashtirgan o‘smirlarning «madaniy identifikatsiya» darajasi yuqoriroq bo‘ladi. Bu esa ularning shaxsiy o‘zligini milliy qadriyatlar bilan uyg‘unlashtirish, ijtimoiy normalar va madaniy uslublarni o‘z hayot tarziga kiritishga moyillik kuchli ekanini tasdiqlaydi. Shu bilan birga, «zamonaviy madaniyat» omili ham «madaniy identifikatsiya» bilan ijobiy korrelyatsiya ko‘rsatib, zamonaviy axborot texnologiyalari, media makon va global ijtimoiy-iqtisodiy tendensiyalarni faol qabul qilgan o‘smirlarning o‘ziga xos madaniy identifikatsiyasi kuchliroq shakllanishini anglatadi. Bunday o‘smirlar yangi g‘oyalar va turmush tarzlariga moslasha olish bilan birga, global integratsiya jarayonida ham faolroq ishtirok etadilar. Demak, «madaniy identifikatsiya» an’anaviy qadriyatlar bilan bog‘lanish orqali ichki barqarorlikni mustahkamlasa, zamonaviy madaniyat elementlarini o‘zlashtirish orqali o‘smirlarning kross-

madaniy moslashuvi va global madaniy jarayonlarda faol bo'lishini qo'llab-quvvatlaydi.

«Madaniyatlararo muloqot» omili «dinamik rivojlanayotgan madaniyat» ($r=0,43$; $p\leq 0,05$) omili bilan bilan ijobiy korrelyatsiya shuni anglatdiki, madaniyatlararo muloqot darajasi yuqori bo'lgan o'smirlar dinamik rivojlanayotgan madaniyat bilan ko'proq integratsiya qilinarkan. Bu, madaniyatlararo muloqotning intensivligi va samaradorligi dinamik rivojlanayotgan madaniyat bilan o'zaro aloqani yaxshilashi, yangi madaniy tajribalar va ma'lumotlarni o'rganish imkoniyatlarini yaratishi, turli madaniy nuqtai nazarlarni o'rganish, yangi madaniyatlar bilan integratsiya qilish va kross-madaniy tajribalarni rivojlantirish, global madaniyatlarni yaxshi tushunish va ularga moslashish qobiliyatini oshishiga xizmat qiladi. Shuningdek, turistik manzilgohlar madaniyatlararo muloqotni kuchaytirish va dinamik rivojlanayotgan madaniyatlar bilan integratsiyani qo'llab-quvvatlash uchun muhim rol o'ynaydi.

3-jadval

**«O'smirlar kross-madaniy tasavvurlari darajasini o'rganish»
so'rovnomasi hamda «Shaxs tolerantligi indeksi» o'rtasidagi korrelyatsion
bog'lanishlar tahlili (n=260)**

Omillar	Moslashuv qobiliyati	Madaniy identifikatsiya	Madaniyatlararo muloqot	Ijtimoiy rol
Etnik tolerantlik	0,37*	0,14	0,18	0,33*
Sotsial tolerantlik	0,14	0,38*	0,15	0,11
Tolerantlik shaxs xislati sifatida	0,16	0,12	0,42*	0,16

«O'smirlar kross-madaniy tasavvurlari darajasini o'rganish» so'rovnomasi hamda «Shaxs tolerantligi indeksi» so'rovnomasi omillari o'rtasidagi bog'lanishlarga ko'ra, «moslashuv qobiliyati» omili «etnik tolerantlik» ($r=0,37$; $p\leq 0,05$) omili bilan, «madaniy identifikatsiya» omili «sotsial tolerantlik» ($r=0,38$; $p\leq 0,05$) omili bilan, «madaniyatlararo muloqot» omili «tolerantlik shaxs xislati sifatida» ($r=0,42$; $p\leq 0,05$) omili bilan, «ijtimoiy rol» omili «etnik tolerantlik» ($r=0,33$; $p\leq 0,05$) omili bilan ahamiyatli aloqadorlikni hosil qildi.

Dastlabki «moslashuv qobiliyati» omili «etnik tolerantlik» ($r=0,37$; $p\leq 0,05$) omili bilan ijobiy bog'lanishga egaligi shuni anglatadiki, moslashuv darajasi yuqori bo'lgan o'smirlarda etnik tolerantlik ko'rsatkichlari ham yuqoriroq namoyon bo'ladi. Boshqacha qilib aytganda, «moslashuv qobiliyati»ning ortishi o'smirlarning yangi va o'zgaruvchan sharoitlarga tezda integratsiyalashish, ularni muvaffaqiyatli boshqarish va o'zini moslashtirish salohiyatini oshiradi. Shu bilan birga, bu ko'nikma turli etnik guruhlar, ularning madaniyatlari, urf-odatlar va an'analariga nisbatan ochiq bo'lish, sabr-toqatli yondashish va bag'rikeng munosabat bildirishni ta'minlaydi. Moslashuvchanligi yuqori bo'lgan o'smirlar


yangi madaniy kontekstlarda tez va samarali moslashish imkoniyatiga ega bo'lib, turli xil etnik va madaniy tajribalarni qabul qilish, ulardan ijobiy xulosa chiqarish va ularga moslashish qobiliyatini kengroq darajada namoyon etadilar. Bu esa ularning kross-madaniy tasavvurlarini boyitib, madaniyatlararo integratsiya jarayonida faol ishtirok etishini qo'llab-quvvatlaydi.

Navbatdagi «madaniy identifikatsiya» omili «sotsial tolerantlik» ($r=0,38$; $p\leq 0,05$) omili bilan ijobiy korrelyatsion bog'lanishni namoyon etdi. Bu natija shuni ko'rsatadiki, madaniy identifikatsiyasi yuqori bo'lgan o'smirlar turli ijtimoiy guruhlar va ularning qadriyatlariga nisbatan ham ko'proq tolerantlik namoyon qiladilar. Boshqacha qilib aytganda, o'z madaniyati va qadriyatlariga chuqur bog'lanish, o'zini shu madaniyatning ajralmas qismi sifatida his etish o'smirlarning ijtimoiy tolerantlik darajasini oshiradi. Shu orqali ular turli ijtimoiy guruhlarining qadriyatlari, urf-odatlar va xususiyatlariga nisbatan sabr-toqatli va ochiq bo'lib, ijtimoiy muhitda konstruktiv va bag'rikeng munosabatlarni shakllantirishga intiladilar. Natijada, madaniy identifikatsiya shaxsiy o'zlik va ijtimoiy bag'rikenglikni uyg'unlashtiruvchi muhim psixologik mexanizm sifatida namoyon bo'lmoqda.

Keyingi «madaniyatlararo muloqot» omili «tolerantlik shaxs xislati sifatida» ($r=0,42$; $p\leq 0,05$) omili bilan ijobiy korrelyatsion bog'lanish hosil qildi. Bu natija shuni anglatadiki, madaniyatlararo muloqot darajasi yuqori bo'lgan o'smirlar tolerantlikni shaxsiy sifat sifatida ko'proq qabul qiladilar. Boshqacha qilib aytganda, turli madaniyat va ijtimoiy guruhlar bilan samarali muloqotga kirishish, tajriba almashish, yangi qarashlar bilan tanishish va konstruktiv aloqalar o'rnatish jarayoni ularning shaxsiy tolerantlik xususiyatlarini rivojlantiradi. Demak, madaniyatlararo muloqotning kuchayishi o'smirlarning nafaqat ijtimoiy ko'nikmalarini, balki tolerantlikni shaxsiy fazilat sifatida qabul qilish va uni kundalik xulq-atvorida namoyon etishini ta'minlaydi.

«Ijtimoiy rol» omili «etnik tolerantlik» ($r=0,33$; $p\leq 0,05$) omili bilan ijobiy korrelyatsion bog'lanish hosil qildi. Bu natija shuni anglatadiki, o'smirlarning ijtimoiy rollarni muvaffaqiyatli bajarishi ularning etnik tolerantlik darajasini oshiradi. Boshqacha qilib aytganda, jamiyatda o'z vazifalari va pozitsiyalarini mas'uliyat bilan ado etish, turli ijtimoiy vazifalarda faol bo'lish hamda jamoa ichida ijobiy xatti-harakatlarni namoyon etish o'smirlarning boshqa etnik guruhlar bilan o'zaro aloqalarini yaxshilashga yordam beradi. Shu bilan birga, ijtimoiy rolning samarali bajarilishi madaniyatlararo tajribalarni boyitadi, etnik xilma-xillikka nisbatan ochiqlikni oshiradi va bag'rikenglikni shaxsiy fazilat sifatida shakllantirishga xizmat qiladi.

Dissertatsiyaning «**O'smirlar kross-madaniy tasavvurlarini shakllantirishning amaliy imkoniyatlari**» deb nomlangan uchinchi bobi muammoning empirik tahliliga bag'ishlangan bo'lib, olingan natijalarning tahlili, o'smirlar kross-madaniy tasavvurlarini shakllantirishga yo'naltirilgan psixologik treninglar dasturi, uning samaradorligini ta'minlaydigan mexanizmlar hamda tajribadan oldingi va keyingi statistik natijalar tahlili keltirilgan.



1-rasm. O‘smirlar kross-madaniy tasavvurlarini shakllantirish modeli.

4-jadval

«O‘smirlar kross-madaniy tasavvurlari darajasini o‘rganish» so‘rovnomasi orqali olingan natijalarning qiyosiy tahlili (n=260)

Omillar	Guruhlar	Treningdan oldingi		Treningdan keyingi		Farqlanish	
		M ₁	S ₁	M ₂	S ₂	t	p
Moslashuv qobiliyati	Tajriba guruhi (n=110)	14,6	1,5	17,5	1,2	-3,1	0,05
	Nazorat guruhi (n=150)	14,9	1,8	17,2	1,4	-1,5	0,16
Madaniy identifikatsiya	Tajriba guruhi (n=110)	15,3	1,6	17,4	1,3	-2,7	0,05
	Nazorat guruhi (n=150)	15,9	1,5	16,2	1,5	-1,4	0,17
Madaniyatlararo muloqot	Tajriba guruhi (n=110)	16,7	1,3	18,1	1,7	-2,3	0,05
	Nazorat guruhi (n=150)	17,1	1,6	17,6	1,8	-1,7	0,14
Ijtimoiy rol	Tajriba guruhi (n=110)	16,7	1,3	18,1	1,7	-2,5	0,05
	Nazorat guruhi (n=150)	17,1	1,6	17,6	1,8	-1,7	0,14

«O‘smirlar kross-madaniy tasavvurlari darajasini o‘rganish» metodikasi orqali olingan natijalarning qiyosiy tahliliga ko‘ra, «moslashuv qobiliyati» ($t=-3,1$; $p<0,05$), «madaniy identifikatsiya» ($t=-2,7$; $p<0,05$), «madaniyatlararo muloqot» ($t=-2,3$; $p<0,05$) hamda «ijtimoiy rol» ($t=-2,5$; $p<0,05$) omillari bo‘yicha ahamiyatli farqlar qayd etilganligini, nazorat guruhimizda esa sezilarli tafovutlar aniqlanmaganligini ko‘rishimiz mumkin. Tajriba guruhimizda esa amalga oshirilgan shakllantiruvchi dasturimizdan so‘ng ijobiy natijalar qayd etildi.

Tahlil natijalariga ko‘ra, «moslashuv qobiliyati» omili bo‘yicha tajriba guruhida yuqori natija qayd etildi ($t=-3,1$; $p<0,05$). Bu shuni anglatadiki, o‘smirlarning yangi madaniy muhitlarga tez va samarali moslasha olish qobiliyati kuchliroq rivojlangan. Ushbu qobiliyatning sezilarli farqlanishi ularning yangicha sharoitlarni qabul qilish, ularni o‘zlashtirish va muvaffaqiyatli boshqarish salohiyatini yanada kuchaytiradi. Natijada, o‘smirlarning kross-madaniy tajribalari boyiydi, turli madaniyat vakillari bilan o‘zaro muloqotga kirishish imkoniyatlari kengayadi hamda madaniy xilma-xillikka moslashuvchanlik ko‘nikmalari mustahkamlanadi. «Moslashuv qobiliyati»ning yuqori bo‘lishi shuningdek tolerantlikni oshirish, etnik va madaniy farqlarni ijobiy qabul qilish hamda ijtimoiy muhitda barqaror munosabatlar o‘rnatishga xizmat qiladi.

Metodikaning keyingi «madaniy identifikatsiya» omili bo‘yicha ham ahamiyatli tafovutlar qayd etilib, tajriba guruhida ijobiy natijalar aniqlandi ($t=-2,7$; $p<0,05$). Ushbu natija o‘smirlarning o‘z madaniyatlariga bo‘lgan bog‘liqligi ularning kross-madaniy muloqotda faol ishtirok etish imkoniyatlarini kuchaytirishini ko‘rsatadi. «Madaniy identifikatsiya»ning yuqori bo‘lishi, bir

tomondan, shaxsiy o'zlikni milliy qadriyatlar bilan uyg'unlashtirishga xizmat qilsa, ikkinchi tomondan, boshqa madaniyat vakillari bilan o'zaro aloqalarni yanada chuqurlashtiradi. Mazkur omilning ahamiyatli farqlanishi o'smirlarning turli madaniyatlarni yaxshiroq tushunish, madaniyatlararo munosabatlarda konstruktiv pozitsiya egallash hamda global muhitda samarali integratsiyalashuv qobiliyatlarini rivojlantirishini tasdiqlaydi.

Navbatdagi «madaniyatlararo muloqot» omili bo'yicha tajriba guruhida ijobiy natijalar qayd etildi ($t=-2,3$; $p<0,05$). Bu shuni anglatadiki, o'smirlarning turli madaniyat vakillari bilan samarali va mahsuldor aloqalar o'rnatish qobiliyatlari kuchaygan. Mazkur omilning ahamiyatli farqlanishi ularning fikr almashish, tajriba o'rtoqlashish va o'zaro tushunishga asoslangan munosabatlarni rivojlantirish imkoniyatlarini kengaytiradi. Shuningdek, «madaniyatlararo muloqot»ning rivojlanishi o'smirlarning nafaqat ijtimoiy moslashuvchanligini oshiradi, balki ularning global jamiyatda muvaffaqiyatli integratsiyalashuvini, madaniy xilma-xillikni qabul qilish va bag'rikenglikni shaxsiy sifat sifatida shakllantirishini ta'minlaydi.

Metodikaning so'nggi «ijtimoiy rol» omili bo'yicha ham ahamiyatli tafovutlar kuzatilib, rivojlantiruvchi dastur qo'llangandan so'ng tajriba guruhida ijobiy natijalar qayd etildi ($t=-2,5$; $p<0,05$). Ushbu natija o'smirlarning turli ijtimoiy muhitlarda o'zini tutishi, vazifalarni bajarishi va jamoadagi pozitsiyasini belgilash jarayonlarida samarali ko'nikmalarga ega bo'la boshlaganini ko'rsatadi. Mazkur omilning sezilarli farqlanishi, o'smirlarning ijtimoiy rollarni muvaffaqiyatli ado etishlari uchun zarur bo'lgan mas'uliyat, hamkorlik va kommunikativ qobiliyatlarning rivojlanishini ta'minlaydi. Natijada, ularning madaniyatlararo aloqalari yanada samarali tus oladi, ijtimoiy muhitda konstruktiv pozitsiyani egallash va global jamiyatda faol integratsiyalashuv imkoniyatlari kengayadi.

Mazkur natijalar o'smirlarning kross-madaniy tasavvurlarini shakllantirish jarayonida ijtimoiy-psixologik omillarning rolini yanada chuqurroq tushunishga yordam beradi. Xususan, «moslashuv qobiliyati», «madaniy identifikatsiya», «madaniyatlararo muloqot» va «ijtimoiy rol» kabi omillar o'smirlarning madaniy tajribalarini boyitib, ularning global jamiyatda muvaffaqiyatli integratsiyalashuvini ta'minlaydi hamda madaniyatlararo muloqotdagi samaradorligini oshiradi. Ushbu ma'lumotlar o'smirlarda madaniyatlararo muloqotni rivojlantirish, tolerantlikni kuchaytirish va ularning madaniyatlararo tajribalarini kengaytirishga xizmat qiluvchi amaliy usullarni ishlab chiqishda muhim ahamiyat kasb etadi.

XULOSA

1. O'smirlarning kross-madaniy tasavvurlari shakllanishi jarayonida ular boshqa millat va madaniyat vakillarining qadriyatlari hamda e'tiqodlarini anglab yetishi, ular bilan samarali muloqot o'rnatishi va shu asosda kasbiy hamda ijtimoiy qadriyatlarni uyg'unlashtirishi muhim omil ekanligi dalillandi.

2. O'smirlardagi kross-madaniy tasavvurlarning qadriyatlar ta'sirida shakllanishi madaniy identifikatsiyaning shaxs ijtimoiy rollariga bog'liq namoyon bo'lishi aniqlandi.

3. O'smirlarning kross-madaniy tasavvurlari shakllanishida moslashuv qobiliyati, madaniy identifikatsiya va madaniyatlararo muloqot omillarining an'anaviy, zamonaviy hamda dinamik rivojlanayotgan madaniyat bilan ijobiy bog'liqligi ularning global integratsiya jarayonlarida faol ishtirokini ta'minlashi dalillandi.

4. O'smirlar kross-madaniy tasavvurlarining shakllanishi shaxslararo munosabatlardagi moslashuvchanlik, ijtimoiy rollarni idrok etish, etnik va madaniy identifikatsiya, sotsial tolerantlik hamda millatlararo muloqot ko'nikmalari bilan uzviy bog'liq holda kechishi isbotlandi.

5. O'smirlarning kross-madaniy tasavvurlari shakllanishida moslashuv qobiliyati, madaniy identifikatsiya, madaniyatlararo muloqot va ijtimoiy rol omillarining tolerantlik ko'rinishlari bilan ijobiy bog'lanishi ularning ijtimoiy moslashuvchanlik, madaniyatlararo aloqalar va bag'rikenglikni rivojlantirishda hal qiluvchi omil ekanini dalilladi.

6. «O'smirlar kross-madaniy tasavvurlari darajasini o'rganish» so'rovnomasi hamda «Shaxs tolerantligi indeksi» so'rovnomasi omillari o'rtasidagi bog'lanishlarga ko'ra, «moslashuv qobiliyati» omili «etnik tolerantlik» omili bilan, «madaniy identifikatsiya» omili «sotsial tolerantlik» omili bilan, «madaniyatlararo muloqot» omili «tolerantlik shaxs xislati sifatida» omili bilan, «ijtimoiy rol» omili «etnik tolerantlik» omillari bilan o'zaro ijobiy aloqadorliklar aniqlandi.

7. «Zamonaviy madaniyat» omili yuqori natijani qayd etgan o'smirlarda media, texnologiya va global ijtimoiy-iqtisodiy tendensiyalar, madaniy identifikatsiyasini shakllantirishda muhim rol o'ynashi aniqlandi.

8. O'smirlar kross-madaniy tasavvurlarining shakllantirishda shaxsdagi etnik identifikatsiya, milliy dahldorlik, tolerantlik sifatlariga uyg'un namoyon bo'lishi zarurligiga asoslanib, ijtimoiy moslashuvchanlikning madaniyatlararo muloqotda lokus nazoratga bog'liq ekanligi dalillandi.

Dissertatsion tadqiqot natijasida quyidagi **amaliy tavsiyalar** ishlab chiqildi:

1. O'smirlarning turli madaniyatlarni to'g'ri idrok etishi va ularda moslashuvchanlikni yanada oshirish uchun maxsus treninglar, rolli o'yinlar va interaktiv seminarlarni ta'lim jarayoniga joriy etish zarur.

2. Madaniy identifikatsiyani rivojlantirish maqsadida milliy qadriyatlar, urf-odatlar va an'analar bilan bir qatorda boshqa xalqlarning madaniy merosini o'rgatishga yo'naltirilgan maxsus dasturlarni ishlab chiqish lozim.

3. O'smirlarning madaniyatlararo muloqot ko'nikmalarini kuchaytirish uchun xorijiy tillar, xalqaro kommunikatsiya va empatiyaga asoslangan dars mashg'ulotlarni tashkil etish maqsadga muvofiq.

4. Ijtimoiy rollarni samarali shakllantirish uchun o'quvchilarda jamoaviy faoliyat, hamkorlik va mas'uliyatni oshiruvchi guruhviy loyihalarni va ijtimoiy tashabbuslarni rivojlantirish zarur.

5. O'smirlarda tolerantlikni mustahkamlash uchun turli millat va madaniyat xodimlari ishtirokidagi madaniy uchrashuvlar, muloqotlar va xalqaro hamkorlik dasturlarini keng yo'lga qo'yish maqsadga muvofiq.

6. Kross-madaniy tasavvurlarni shakllantirishda psixologik xizmat ko'rsatish, ya'ni individual maslahatlar, psixokorreksion va psixoprofilaktik tadbirlarni qo'llash kerak.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.03/04.10.2024.P.72.06 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ БУХАРСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ
УНИВЕРСИТЕТЕ**

САМАРКАНДСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ

ИСАКОВА ШАХЛО ИСМОИЛОВНА

**СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ
ФОРМИРОВАНИЯ КРОСС-КУЛЬТУРНЫХ ПРЕДСТАВЛЕНИЙ У
ПОДРОСТКОВ**

19.00.05 – Социальная психология. Этнопсихология

**АВТОРЕФЕРАТ
ДИССЕРТАЦИИ НА СОИСКАНИЕ УЧЕНОЙ СТЕПЕНИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ
(PhD) ПО ПСИХОЛОГИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Бухара – 2025

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована под № В2024.3.PhD/P992 в Высшей Аттестационной Комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан.

Диссертация выполнена в Самаркандском государственном университете.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекском, русском и английском (резюме) и размещен на веб-странице Научного совета (www.samdu.uz) и на Информационно-образовательном портале «ZiyoNet» (www.ziyo.net.uz).

Научный руководитель:	Негматова Шахлола Шухратовна доктор философских наук, профессор
Официальные оппоненты:	Улугова Шахлола Муслиддиновна доктор психологических наук, профессор Ахмедов Назиржон Рахматович доктор психологии (PhD) по философским наукам, доцент
Ведущая организация:	Университет Маъмуи

Защита диссертации состоится в 14:00 часов 4 октября 2025 года на заседании Научного совета DSc.03/04.10.2024.P.72.06 по присуждению ученых степеней при Бухарском государственном университете (Адрес: 200118, г.Бухара, ул.Мухаммад Икбол, 11. (Тел.: +99865221-29-14; факс: +998365 221-57-27; e-mail: buxdu_rektor@buxdu.uz)

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Бухарского государственного университета (зарегистрирована под № D/336 (Адрес: 200118, г. Бухара, ул.Мухаммад Икбол, 11. (Тел: +998365221-25-87).

Автореферат диссертации разослан «30» сентября 2025 года
(реестр протокола рассылки № 20 от «30» сентября 2025 года



А.М. Назаров
Председатель Научного совета по присуждению ученых степеней, доктор психологических наук (DSc), профессор

Ш.Ш. Рустамов
Ученый секретарь Научного совета по присуждению ученых степеней, доктор психологических наук (DSc), доцент

А.А. Хусейнова
Председатель Научного семинара при Научном совете по присуждению ученых степеней, доктор философических наук, профессор

ВВЕДЕНИЕ (автореферат диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В мире усиление глобализации, экономической интеграции, масштабная миграция и увеличение транснациональных связей повышают необходимость формирования в сознании подростков кросс-культурных представлений. Согласно отчетам UNESCO, в школах, где в учебные программы включены элементы межкультурного общения, 68% учащихся развили положительные навыки сотрудничества с представителями других национальностей. В документе UNESCO «Межкультурный диалог и образование: Глобальная стратегия» от 18 ноября 2013 года особое внимание уделяется развитию культурных компетенций в образовательном процессе, в том числе расширению опыта различных культур среди молодежи и подростков. Также в условиях культурного обмена культурные представления подростков и их формирование являются актуальной темой для любого общества.⁴

В мировых образовательных и научных центрах особое внимание уделяется формированию у подростков кросс-культурных представлений в образовательном процессе. В исследованиях в рамках «World Values Survey» более 60% подростков, воспитанных в различных межкультурных средах, выразили готовность принять другие культурные ценности, в то время как в среде, где такие программы отсутствуют, этот показатель составил всего 35%. По данным Национальных статистических центров образования, дискриминационное поведение и этническое хулиганство в школах, где были внедрены кросс-культурные программы, снизились на 25-30%. Согласно результатам мониторинга, проведенного Европейским Союзом в 2023 году, общий уровень благополучия и социальная активность тех, кто активно участвовал в межкультурных проектах среди подростков, были на 18-20% выше. На этой основе совершенствование социально-психологических механизмов формирования кросс-культурных представлений у подростков, их развитие как личности, обеспечение стабильности в обществе и создание психологической основы для построения толерантного сообщества в будущем становится актуальным направлением научных исследований⁵.

В Новом Узбекистане в последние годы особое внимание уделяется вопросам совершенствования социально-психологических технологий формирования кросс-культурных представлений в сознании подростков, создана необходимая правовая и нормативная база. «Развитие культуры межкультурного общения, укрепление межнационального согласия и единства, воспитание молодого поколения на этой основе в духе любви и преданности Родине определены в качестве одного из приоритетных направлений государственной политики в Узбекистане». Также в центре внимания государства и общества находится задача «воспитания молодежи, преданной Родине, в духе толерантности, уважающей национальные и общечеловеческие ценности, способной противостоять вредоносным

⁴ <https://www.unesco.org/ru>

⁵ <https://www.worldvaluessurvey.org/>

течениям». Это обуславливает необходимость научного изучения процесса формирования кросс-культурных представлений у подростков, совершенствования имеющихся технологий и разработки новых теоретических решений⁶.

